




**XORAZM VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI**



**XORAZM VILOYATINING
SANOAT
ISHLAB CHIQRISHI**

**2022- YIL YANVAR-SENTABR
(DASTLABKI MA'LUMOT)**




Xorazm viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2022- yil yanvar-sentabr oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 13 136,2 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 115,9 %ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelgan va uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 96,4 %ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* %da



*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 13,4 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 24,6 % ga chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishning – 0,7 % ga o'sishi kuzatildi, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati – 80,5 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, kamayishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,0 mlrd so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,007 %ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda




Yanvar-sentabr

Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd soʻm

Yanvar-sentabr

FHI,% da



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 12 656,8 mlrd soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 96,4 %ini tashkil etdi.

2021- yil yanvar-sentabr


96,1 %

2022- yil yanvar-sentabr

96,4 %

Oʻtgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,11 %ni (2021- yilning yanvar-sentabr oylarida – 0,18 %), oʻrta-yuqori texnologiyali – 41,3 %ni (2021- yilning yanvar-sentabr oylarida – 47,4 %), oʻrta-quyi texnologiyali – 4,0 % (2021- yilning yanvar-sentabr oylarida – 6,9 %) va quyi texnologiyali – 51,0 % (2021- yilning yanvar-sentabr oylarida – 41,6 %)ni tashkil etdi.

■ 2022- yil ■ 2021- yil




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 43,8 % (2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 106,2 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,3 % (2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 148,0 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 21,4 % (2021-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 93,8 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 29,4 % (2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 159,7 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,7 % (2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 84,4 %)ni, yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohl va to'qish uchun materiallardan buyumlar, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 1,5 % (2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 79,1 %)ni tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da *


Paxta tolasi




Paxta chigiti




Paxtadan yigirilgan ip





Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz)



Maxsus yengil avtomobillar





2022- yilning yanvar-sentabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda paxta tolasi 47 178,1 tonna (2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 26,8 %ga oshgan), paxta chigiti 88 930,8 tonna (2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 25,5 % ga oshgan), 25 649,0 tonna paxtadan yigirilgan ip (16,7 % oshgan), 52 673 dona yengil avtomobil (maxsus yengil avtomobillarsiz) (24,4 % oshgan), 14 389,0 dona maxsus yengil avtomobil (30,1 % ga oshgan), o'simlik yog'i 7 411,7 tonna (47,0 % kamaygan), xo'jalik sovuni 1 638,2 tonna (49,9 % kamaygan) hamda 65962,0 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (101,1 % bo'lgan) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.


Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-sentabr	2022- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz),dona	42356	52673	10317
Maxsus yengil avtomobillar, dona	11056	14389	3333
Paxtadan yigirilgan ip,tonna	21987,9	25649,0	3661,1
Paxta tolasi,tonna	39108,6	47178,1	8069,5
Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna	65250,4	65962,0	711,6
O'simlik yog'i (tozalangan), tonna	16587,3	7411,7	-9175,6

Yanvar-sentabr, yirik korxonalar bo'yicha

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2020- yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,8 %ni, uning fizik hajm indeksi esa 93,2 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 23,4 %ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 63,1 %ga ko'paygan va ishlab chiqarish hajmi 2 962,7 mlrd so'mni tashkil etdi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati




2020- yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 3,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 104,4 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 6,0 %ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 43,8 %ga ko'paygan va ishlab chiqarish hajmi 758,2 mlrd so'mni tashkil etdi.

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


2020- yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 19,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 122,0 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 20,9 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 91,5 %ni, ishlab chiqarish hajmi 2 641,1 mlrd so'mni tashkil etdi.




Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2020- yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,6 %ni, uning fizik hajm indeksi esa 198,9 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-sentabr oylariga ko'ra, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,0 %ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 41,8 %ni va ishlab chiqarish hajmi 128,0 mlrd so'mni tashkil etdi.



Asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




2020- yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,12 %ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 19,9 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,11 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 68,0 %ni va ishlab chiqarish hajmi 14,0 mlrd so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2020- yil yanvar-sentabr oylarida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,9 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 107,9 %ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 %ni, fizik hajm indeksi 74,3 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 60,7 mlrd so'mni tashkil etdi.




Elektr uskunalar ishlab chiqarish

2020- yil yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 83,0 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 %ni, fizik hajm indeksi 154,7 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 31,8 mlrd so'mni tashkil etdi.



Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish




2020- yil yanvar-sentabr oylarida boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 40,2 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,6 %ni, fizik hajm indeksi 108,0 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 331,3 mlrd so'mni tashkil etdi.

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

2020- yil yanvar-sentabr oylarida avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 50,2 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 115,2 %.


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 39,7 %ni, fizik hajm indeksi 108,8 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 5 030,4 mlrd so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 391,3 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,0 %ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 24,6 %ga oshganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-sentabr	2022- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln kVt.s	127,4	374,7	247,3
Issiqlik energiyasi, ming gkal	47,7	45,2	-2,5
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, ming so'm	1340627,0	1368491,0	27864

Yanvar – sentabr, yirik korxonalar bo'yicha

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 87,2 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 %ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-sentabr	2022- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, <i>ming so'm</i>	3831146,0	4595470,0	764324
Tabiiy suv;suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar, <i>ming so'm</i>	99770172,0	101241176,0	1471004
Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, <i>ming so'm</i>	18342398,0	15587581	-2754817,0

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 23,7 %ga, tabiiy suv, suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 1,9 % ga oshganligi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8 340,2 mlrd so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 126,2 %ni, uning jami sanoatdagi ulushi 63,5 %ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2021- yil
yanvar-sentabr

38,7%

2022- yil
yanvar-sentabr

40,3%

Nooziq-ovqat mahsulotlari

2021- yil
yanvar-sentabr

61,3

2022- yil
yanvar-sentabr




59,7%

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib 66,3 %ni, Urganch shahrida 14,9 %ni va Urganch tumanida 3,8 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (126,2 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Urganch shahrida (150,1 %), Gurlan tumanida (130,4 %), Yangibozor tumanida (168,9 %), Urganch tumanida (136,8 %), Yangiariq tumanida (128,7 %) qayd etildi.

Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulush Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib 66,3 %ni, Urganch shahrida 14,9 %ni va Urganch tumanida 3,8 %ni tashkil etdi.



o'sish sur'ati
mlrd so'm

Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib 79,4 %ni, shuningdek, Urganch shahrida 6,3 %ni, Xonqa tumanida 2,2 %ni tashkil etdi.

4 048,4


mlrd so'm

2021- yil yanvar-sentabr



4 982,6

mlrd so'm

2022- yil yanvar-sentabr



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarning ulushi




Xorazm viloyati	123,1	4982,6
Urganch shahri	101,1	315,3
Xiva shahri	111,2	75,1
Bog'ot tumani	108,7	42,7
Gurlan tumani	172,0	53,2
Qo'shko'pir tumani	97,1	40,3
Urganch tumani	113,8	106,5
Hazorasp tumani	129,5	41,1
Tuproqqal'a tumani	124,4	3954,9
Xonqa tumani	119,8	110,9
Xiva tumani	113,2	49,0
Shovot tumani	106,4	46,9
Yangiariq tumani	145,9	71,6
Yangibozor tumani	319,2	75,0

o'sish sur'ati

mlrd so'm

Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulush Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib, 47,0 %ni, shuningdek, Urganch shahrida 27,5 %ni, Urganch tumanida 6,4 %ni tashkil etdi.




2 558,7 mlrd. so'm

2021-yil yanvar-sentabr

3 357,6 mlrd. so'm

2022-yil yanvar-sentabr



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi

40,3%

116,6 %

2021-yil

131,3 %

2022-yil

o'sish sur'ati

mlrd so'm

Xorazm viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib, 53,6 %, shuningdek, Urganch shahrida 17,5 %ni, Urganch tumanida 4,8 %ni, Shovot tumanida 4,0 %ni tashkil etdi.

Xorazm viloyati

2021- yil Yanvar-sentabr

8 120,3 mlrd so'm

2022- yil Yanvar-sentabr

11 151,7 mlrd so'm



2021- yil

110,7 %

2022- yil

115,8 %

Xorazm viloyati	115,9	13 136,2
Urganch shahri	114,4	2 312,8
Xiva shahri	107,3	167,8
Bog'ot tumani	110,7	397,5
Gurlan tumani	109,1	336,4
Qo'shko'pir tumani	101,7	260,6
Urganch tumani	113,5	656,5
Hazorasp tumani	102,2	341,7
Tuproqqal'a tumani	113,3	6 833,1
Xonqa tumani	105,6	469,3
Xiva tumani	104,1	170,7
Shovot tumani	102,2	498,5
Yangiariq tumani	115,7	271,6
Yangibozor tumani	120,2	419,7

FHI, % da

mlrd so'm

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Tuproqqal'a tumanida 119 793,4 ming so'm), Urganch shahrida (15 642,9 ming so'm) aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (8 856,3ming so'm) yuqoriligini ko'rsatmoqda.



o'sish sur'ati
ming so'm

Xorazm viloyati

2021- yil yanvar-sentabr
4 939,9 ming so'm

2022- yil yanvar-sentabr
6 786,6 ming so'm




2021- yil
109,1 %

2022- yil
114,0 %

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 123,4 mlrd soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 16,2 %ni tashkil etdi.



Xorazm viloyati

2021- yil

yanvar-sentabr

1 806,1 mlrd soʻm

2022- yil

yanvar-sentabr

2 123,4 mlrd soʻm



23,5 %

2021- yil

16,2 %

2022- yil

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 4 308,8 ming so'm bo'lgani holda, Tuproqqal'a tumanida 96 924,5 ming so'mni, Urganch shahrida 8 414,2 ming so'mni tashkil etdi.

Xorazm viloyati

2021- yil yanvar-sentabr

3 470,3 ming so'm

2022- yil yanvar-sentabr

4 308,8 ming so'm



2021- yil

112,9 %

2022- yil

124,2 %


Xorazm viloyati	124,2	4 308,8
Urganch shahri	147,7	8 414,2
Xiva shahri	108,9	1 250,6
Bog'ot tumani	104,0	794,2
Gurlan tumani	128,3	857,8
Qo'shko'pir tumani	98,9	428,3
Urganch tumani	134,1	1 549,7
Hazorasp tumani	114,5	395,9
Tuproqqal'a tumani	119,4	96 924,5
Xonqa tumani	117,5	1 396,0
Xiva tumani	109,9	579,3
Shovot tumani	102,5	717,8
Yangiariq tumani	126,8	918,5
Yangibozor tumani	166,3	1 266,0

o'sish sur'ati



ming so'm

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari



Bugungi kunda viloyatda 4 751 ta sanoat korxonasi faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 870 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 18,3 %) Urganch shahriga, 548 tasi (11,5 %) Urganch tumaniga, 434 tasi (9,1 %) Qo'shko'pir tumaniga, 410 tasi (8,6 %) Xonqa tumaniga va 397 tasi (8,4 %) Xiva shahriga to'g'ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan



Jami faoliyat yuritayotgan



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturi bo'yicha 109 ta loyiha mavjud bo'lib, ular tomonidan joriy yilning yanvar - sentabr oylarida 369,1 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Mazkur korxonalar tomonidan 6,5 mln AQSH dollarlik mahsulot eksport qilinib, 381 ta yangi ish o'rinlari yaratilgan.

Dastur ijrosining shahar va tumanlar bo'yicha tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, Urganch shahrida 28 ta loyihada 130,5 mlrd so'mlik, Xiva shahrida 3 ta loyihada 0,140 mlrd so'mlik, Bog'ot tumanida 4 ta loyihada 3,389 mlrd so'mlik, Gurlan tumanida 12 ta loyihada 30,046 mlrd so'mlik, Qo'shko'pir tumanida 4 ta loyihada 4,233 mlrd so'mlik, Urganch tumanida 10 ta loyihada 28,288 mlrd so'mlik, Hazorasp tumanida 5 ta loyihada 0,771 mlrd so'mlik, Tuproqqal'a tumanida 15 ta loyihada 122,477 mlrd so'mlik, Xonqa tumanida 5 ta loyihada 8,960 mlrd so'mlik, Xiva tumanida 7 ta loyihada 5,723 mlrd so'mlik, Shovot tumanida 5 ta loyihada 29,845 mlrd so'mlik, Yangiariq tumanida 4 ta loyihada 3,300 mlrd so'mlik va Yangibozor tumanida 7 ta loyihada 1,447 mlrd so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

	2022 - yil yanvar-sentabr	2021 - yil yanvar-sentabr
Loyihalar soni, birlik	109	110
Korxonalar soni, birlik	93	89
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd so'm	369,1	209,2